

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 148 (1474), 2025-yil 22-iyul, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

XORIJIY INVESTORLAR KENGASHINING NAVBATDAGI MAJLISI DOIRASIDA ERISHILGAN KELISHUVLARNING IJROSINI TA’MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

2025-yil 11-iyun kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining uchinchi yalpi majlisi doirasida ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida qaror qilaman:

I. Ilgari surilgan taklif va tashabbuslarni tizimli amalga oshirish

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining uchinchi yalpi majlisida ilgari surilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar rejasini 1-ilovaga muvofiq;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi O‘zbekiston tomonining yangilangan tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(i) Bunda Xorijiy investorlar kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash)ga uning huzurida yo‘nalishlar bo‘yicha ishchi guruhlar tashkil qilish hamda ularning tarkibiga vazirlik va idoralar rahbarlari (xodimlari)ni jalb qilish huquqi berilsin.

II. Kengash kotibiyati va ishchi guruhlar faoliyatini takomillashtirish

2. Kengash a‘zolari va xalqaro moliya institutlarining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) Kengash kotibiyatini nodavlat notijorat tashkilot sifatida tashkil etish hamda uning a‘zoligiga xalqaro moliya institutlarini ham jalb qilish;

b) Kengash kotibiyati tomonidan xorijiy investorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash orqali mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiya mablag‘larini jalb qilishga ko‘maklashish;

d) Kengashning davlat organlari va tashkilotlari bilan bog‘liq faoliyatini Kengash kotibiyati tomonidan muvofiqlashtirish, shuningdek, Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalar bo‘yicha mahalliy va xorijiy kompaniyalar vakillari bilan maslahatlashuvlarni tashkil etish;

e) Kengash kotibiyati hamda ishchi guruhlarning faoliyati natijalari haqida har chorak yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.

3. Quyidagilar Ishchi guruhlarning vazifalari etib belgilansin:

a) har oyda Kengash kotibiyati bilan hamkorlikda mazkur qarorga 1-ilovada keltirilgan harakatlar rejasini doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muhokamalar o‘tkazib borish;

b) investitsiya muhitini yaxshilash yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish.

III. “Yagona investitsiya platformasi” axborot tizimini joriy qilish

4. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan tashkilotlar rahbarlari:

a) “Yagona investitsiya platformasi” axborot tizimi bilan integratsiya qilinadigan axborot tizimlari ro‘yxatiga asosan integratsiya qilish ishlarini grafikka muvofiq yakunlashga;

b) “Yagona investitsiya platformasi” axborot tizimiga manzilli va istiqbolli loyihalarni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlangan shaklga muvofiq kiritishga shaxsan mas’ul va javobgar etib belgilansin.

5. Bosh vazir o‘rinbosari J.A. Xodjayev bir hafta muddatda aniq muddat va mas’ullarni belgilagan holda davlat xizmatlari ko‘rsatiladigan axborot tizimlarini “Yagona investitsiya platformasi” axborot tizimi bilan integratsiya qilish mexanizmlari va grafignini tasdiqlas.

IV. Qaror ijrosini tashkil etish, ta’minlash va nazorat

6. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik birlashmalari mazkur qarorga 1-ilovadagi harakatlar rejasida ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning belgilangan muddatlarda samarali, so‘zsiz, sifatli va to‘liq hajmda amalga oshirilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakili A.Y. Magrupov, Bosh vazir o‘rinbosarlari J.A. Xodjayev, J.A. Qo‘chqorov hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi:

a) Kengashning uchinchi yalpi majlisi davomida ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan muntazam va tizimli monitoring hamda qat’iy nazorat olib borsin;

b) ushbu qarorga 1-ilovada keltirilgan harakatlar rejacining so‘zsiz ijrosini ta’minlash bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirsin, har chorak yakunida hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borsin, shuningdek, chora-tadbirlarning ijrosiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy omillarni bartaraf etish choralari ko‘rsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

NEFT-GAZ SOHASI INFRATUZILMASI YAXSHILANADI VA ENERGIYA MUVOZANATLI YETKAZIB BERILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-iyul kuni neft-gaz sohasida xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda o‘sib borayotgan talabga mos ravishda energetika izchil rivojlantirilmoqda. Davlatimiz rahbarining xorijiy tashriflari va ular doirasida o‘tgan biznes forumlari natijasida ko‘plab loyihalar amalga oshmoqda.

Jumladan, Ozarbayjonning “Socar” kompaniyasi bilan Ustyurtdagi konlarda qidiruv o‘tkazib, neft qazib olish bo‘yicha kelishuvga erishilgan. Birgalikda istiqbolli maydonlarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish rejalashtirilgan.

Shuningdek, boshqa xorijiy davlatlar bilan murakkab konlarni o‘zlashtirish, sohani raqamlashtirish, talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash kabi muhim yo‘nalishlarda hamkorlik qilinmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar sheriklikdagi ishlarning borishi va galdagi rejalari yuzasidan axborot berdi.

Prezidentimiz istiqbolli maydonlar bo‘yicha aniq loyihalarni shakllantirish, geologiya-qidiruv ishlaridan tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan to‘liq zanjimi yo‘lga qo‘yish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi. Shu bilan birga, amaldagi xorijiy va qo‘shma korxonalarda yangi burg‘ilash usullarini qo‘llash, quduqlarning samaradorligini oshirish orqali neft va gaz hajmini ko‘paytirish zarurligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik masalalari ham ko‘rib chiqildi. Mutasaddilar buning uchun yetarli energiya ishlash chiqarish, gaz omborlarida jamg‘arish va muvozanatli yetkazib berish choralari ko‘rilayotgani to‘g‘risida axborot berdi.

Xususan, Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasida 1 ming 65 megavattli ikkita bug‘-gaz qurilmasi, Sirdaryoda 1 ming 573 megavattli issiqlik elektr stansiyasi barpo etilmoqda. Ularning jami quvvati yiliga 20 milliard kilovatt-soat bo‘ladi.

Shuningdek, bu yil Toshkent, Namangan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida jami 162 megavattli yangi gidro elektr stansiyalar ishga tushiriladi. Ularda yiliga 648 million kilovatt-soat elektr ishlab chiqariladi. Bular, avvala, xalqimiz ehtiyoji va o‘sib borayotgan iqtisodiyot uchun qo‘shimcha quvvat bo‘ladi.

Ayni paytda tegishli tarmoq va podstansiyalarni ta’minlash ishlari ham boshlangan. Issiqlik stansiyalari barqaror ishlashi uchun zarur yoqilg‘i, butlovchi va ehtiyot qismlar zaxiralari shakllantirilmoqda.

Yig‘ilishda soha infratuzilmasini izchil modernizatsiya qilib, energiya yetkazib berish uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

O‘Z A

GIGANT ZAVODNING BEQIYOS QUVVATI

Yangi O‘zbekistonning yirik loyihalaridan biri, dunyoning beshinchi gigant zavodi sifatida “Uzbekistan GTL” korxonasi to‘liq quvvatda ish boshladi. “Uzbekistan GTL” korxonasi iqtisodiy islohotlardagi katta qadamlardan biridir. Majmuada ishlab chiqarilayotgan dizel yoqilg‘isining sifat darajasi eng yuqori talablarga to‘liq javob berishi bilan e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Natijada u nafaqat Osiyo, balki Yevropa bozorlariga ham kirib bormoqda.



Islohotlar amalda

Ushbu harakatning faol bosqichi 2016-yilda davlatimiz rahbarining GTL zavodi va Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasining texnologik va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali hududda birinchi gaz-kimyoy klasterini yaratish bo‘yicha tashabbusi bilan boshlangan edi. Yirik majmuaning ochilish marosimi 2021-yili 25-dekabr kuni davlatimiz rahbari ishtirokida bo‘lib o‘tgandi. Korxona 2022-yil 29-iyundan mahsulot ishlab chiqarishni boshladi. Bugun zavodda 1100 ga yaqin ish o‘rni yaratildi. U yerda mehnat qilayotganlarning aksari qashqadaryolik yoshlar. Ayni paytda korxonada ishlab chiqarilayotgan dizel, aviakerosin, nafta va suyultirilgan gaz sintetik yoqilg‘i mahsulotlari uzluksiz ravishda Respublika tovar-xomashyo birjasi savdo platformasi orqali realizatsiya qilinib, iste’molchilarga yetkazib berilyapti.

Davomi 3-betda



Taraqqiyot odimlari

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MILLIY BOZORI

UNDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI QANDAY?

Mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi va ularning salmoqli qismi xorijiy tillarni yaxshi biladi. Bu O‘zbekiston “iqtidorlar markazi”ga aylanishi uchun qulay imkoniyatdir. Qolaversa, mamlakatimizda IT-park rezidentlari 2800 dan oshdi, xorijiy kompaniyalar 752 taga yetdi. Bu sohada 40 mingdan ziyod yoshlarimiz yuqori daromad topyapti ham.



Xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritgan yoshlarning oylik maoshi 35 million so‘mgacha yetadi. Shuning o‘zi IT sertifikati raqobat yuqori bo‘lgan bozorda qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish vazifasi qo‘yilgan. Mazkur jarayonda xotin-qizlar faolligini oshirish muhim. Chunki bu ular uchun nafaqat shaxsiy rivojlanishiga zamin yaratadi, balki bilim va malaka eshiklarini ochadi, moliyaviy ahvolini yaxshilaydi, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan mutaxassis bo‘lib shakllanishiga ko‘mak beradi.

Davomi 5-betda

MAQSADIMIZ BUYUK VA QAT’IY, SHASHTIMIZ BALAND

NATIJALAR HAM SHUNGA YARASHA



Prezidentimizning shu yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida milliy istiqlolimizning 34 yillik shonli sanasi yangi O‘zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro‘-e’tiboriga munosib tarzda yuksak saviyada o‘tkazilishi belgilandi.

Yurtimizda mustaqillik yillaridagi keng ko‘lamli islohotlar samarasida milliy davlatchilgimiz poydevori mustahkamlab, suverenitetimiz, chegaralarimiz daxlsizligi ta’minlandi. Tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi.

Davomi 2-betda

Boshlanishi 1-betda

Narx pastlashiga erishildi

Zavod ishga tushishi natijasida ichki bozorda dizel narxi arzonlashdi. Misol uchun, zavod mahsulot ishlab chiqarishni boshlashdan oldin 1 tonna dizel narxi oʻrtacha 18,5 million soʻmni tashkil etgan boʻlsa, bugun 9,5 million soʻmgacha pasaydi.

Bu esa respublikada dizelning asosiy isteʼmolchilari boʻlgan qishloq xoʻjaligi, togʻ-metallurgiya kombinatlari uchun transport xarajatlarini pasaytirish, ularning mahsulotlari raqobatbardosh boʻlishi imkonini kengaytirdi.

2022-yil 11-sentabrdan zavodda ASTM D-7566 xalqaro standarti va texnologiya litsenziarining texnik talablariga mos sintetik aviakerosin ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyildi. Shu bilan birga, aviakerosinning 23 ta asosiy fizik-kimyoviy va texnik koʻrsatkichi toʻliq talab darajasiga, xususan, asosiy koʻrsatkichlardan biri boʻlgan muzlash harorati xalqaro standart darajasida (-47 C) ekani sinovlarda oʻz isbotini topdi.

Sintetik aviakerosinning birinchi bosqichi aviasohani tartibga soluvchi IATA xalqaro tashkiloti tavsiyasiga koʻra, yarim sintetik Jet A-1 sifatida muvofiqlik sertifikatini olish uchun SGS kompaniyasining Estoniya, Belgiya va Fransiya laboratoriyalariga tahlil va tegishli xulosalar olish uchun yuborildi va ijobiy javob olindi.

Jumladan, “Boeing” hamda “Airbus” kompaniyalari oʻz samolyotlarida sintetik aviakerosinning anʼanaviy Jet A-1 aviayoqilgʻisi bilan 50 foizgacha aralashmasini ishlatish mumkin ekanini maʼlum qildi. 2022-yil sentabr oyidan esa “Oʻzbekiston havo yoʻllari” aviakompaniyasining barcha samolyotlari zamonaviy yarim sintetik Jet A-1 aviayoqilgʻisi, yaʼni GTL sintetik kerosinida parvozlarini amalga oshirishni boshladi.

Zavod chet el aviakompaniyalari samolyotlarini ham sifatli aviayoqilgʻi bilan taʼminlamogʻda. Hozir ekologik toza aviayoqilgʻi uchun talab oshib borishini hisobga olsak, Oʻzbekiston kelgusida havo kemalari uchun xabga aylanish imkoniyatiga ega.

Havoga zararli chiqindilar chiqishi 40 foiz kamayadi

Davrimizga kelib, ekologiya va atrof muhitni asrash global masalaga aylandi. Shu bois, har bir sohada ekologiyani asrashga jiddiy eʼtibor berish zarur. Ayniqsa, ishlab chiqarishda bu yanada dolzarblik kasb etadi. Shu maʼnoda, korxona mahsulotlari ekologik toza ekani bilan ajralib turadi. Bunday natijaga erishish uchun korxonaga GTL texnologiyasi tanlangan. Mazkur texnologiya nafaqat yuqori sifati sabab, mahsulotning ekologik tozaligi bilan ham xalqaro bozorda xaridorgir.

Zavod mahsuloti atrof-muhitga boshqa yoqilgʻilarga nisbatan kam zarar yetkazishi isbotlangan. Sinovlar koʻrsatdiki, GTL dizeli “oson biologik parchalanadigan” va “notoksik” deb tasniflanishi mumkin. Yaʼni GTL dizeli anʼanaviy dizel yoqilgʻiga qaraganda inson salomatligi uchun ham xavfsizroqdir. Dizel transport dvigatellarida 100 foizli GTL yoqilgʻisidan foydalanish chiqindi gazlarni kamaytirish orqali havo sifatini yaxshilashga yordam beradi. Yoqilgʻi yonganda zaharli chiqindilar, jumladan, oltinbugurtli zaharli birikmalarni deyarli chiqarmaydi. Shu orqali havoga zararli chiqindi chiqishi 40 foiz kamayadi.

Bundan tashqari, GTL yoqilgʻisidan mintazam foydalanib kelgan avtomobil transportlarining yoqilgʻi va moylovchi qismlariga texnik xizmat koʻrsatish oraliqʻi taxminan ikki baravar uzayadi.

Elektr energiyasida muammo yoʻq

Zavodni elektr energiyasi bilan taʼminlashda ham innovation texnologik yechim qoʻllanilgan. Korxonada texnologik jarayonlarda hosil boʻladigan bugʻni generatorlarga yuborish orqali elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Oʻrnatilgan generatorlarning umumiy loyihaviy quvvati 85 MVt/soatgachadir.

Bugungi kunda GTL zavodi ehtiyojidan tashqari 45 MVt.gacha boʻlgan elektr energiyasi respublika milliy elektr tarmogʻiga uzatilyapti. Ushbu qoʻshimcha quvvat Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasi, Shoʻrtan neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi, shuningdek, boshqa ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlar, jumladan, turar joy binolari va tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi bilan taʼminlash imkonini yaratadi.

Umuman, korxonada jahondagi eng yetakchi va ilgʻor texnologik yechimlar qoʻllanilgan. Jumladan, dunyodagi eng katta havo siquvchi kompressor va eng katta kislorod ishlab chiqaradigan uskunalar

asrash, tabiatni zararli chiqindilardan himoya qilishda juda katta natijadir.

Arktik dizel mavsumga mos

Zavodda oʻta past haroratga bardoshli arktik turdagi GTL dizel mahsulotlari ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyilgan. Bu turdagi yoqilgʻini har qanday anomol sovuqda ham ishlatish mumkin.

Taʼkidlanishicha, sovuq kunlar boshlanishi oldidan korxonada arktik turdagi GTL dizel mahsulotlari ishlab chiqarish rejimiga oʻtiladi. Muhimi, oʻta past haroratga bardoshli yoqilgʻi ishlab chiqarishda dizel mahsulotlariga faqat kimyoviy qoʻshimchalar qoʻshish evaziga emas, balki Isodewaxing reaktorlarida ularning tuzilmasini oʻzgartirish orqali erishilmoqda.

Dizel mahsulotlari mavsumiyligiga qarab yozgi, qishki va arktik turlarga boʻlinadi. Belgilangan standart talablariga koʻra, yozgi yoqilgʻi havo harorati minus 5 darajagacha, qishkisi minus 32 darajagacha, arktik turdagisi esa minus 47 darajagacha boʻlsa, oʻz xususiyatini yoʻqotmaydi. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan sintetik GTL dizel mahsulotlari esa hatto selsiy boʻyicha minus 54 daraja



shu yerda oʻrnatilgan. Zavod 30 dan ortiq davlatning xalqaro talablarga mos keladigan qurilmalar bilan jihozlangan. Jumladan, ZLD (zero liquid discharge) texnologiyasi qoʻllanilgan. Bu texnologiya atrof-muhitga oqova suvni chiqarmasligi bilan ajralib turadi. Yaʼni texnologik jarayonlardan chiqqan suv tozalanib, yana tizimga qayta yoʻnaltiriladi. Shuning oʻziyoq bebaho boylik boʻlgan suvni

sovuqda ham oʻz holatini barqaror saqlab qoladi.

Yoshlar uchun imkoniyatlar maydoni yaratilgan

“Uzbekistan GTL” MCHJda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida izchil va tizimli ishlar olib borilmoqda. Korxona

xodimlarining qariyb 50 foizi — 475 nafari yosh. Ular muhandis-texnologlar, operator-texniklar, smena rahbarlari va mutaxassislar. Korxonadagi oʻrtacha yosh 33 yoshdir. 352 nafar yosh xodim chet til boʻyicha sertifikatga ega boʻlib, xalqaro darajada ishlash salohiyatiga ega.



Ha, korxonada yoshlar siyosatiga alohida darajada eʼtibor qaratilgan. Ularning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish va sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish maqsadida 2025-yil 1-yarim yilligining oʻzidayoq ikki marta “Zakovat”, shaxmat va shahshaq musobaqalari oʻtkazildi. Qolaversa, vaqti-vaqti bilan kibersport, mini futbol kabi musobaqalar ham tashkil etilyapti. Yoshlar tashqi musobaqalarda ham faol. Xususan, “Oʻzbekneftgaz” AJ tashkilotlari oʻrtasida mintazam oʻtkaziladigan “Zakovat”, “Brain Ring”, “Cyber Champions”, “Xakaton” oʻyinlarida gʻolib boʻlib kelishadi.

Shu bilan birga, yoshlar orasida “Kelajak bunyodkori” davlat mukofoti sovrindorlari va “El-yurt umidi” grantini yutib, Yaponiya va Avstraliyaning nufuzli universitetlarida oʻqib kelayotgan yosh mutaxassislar anchagina. Shuning oʻziyoq korxona ishchilari ham aqiliy, ham jismoniy jihatdan kuchli ekanini koʻrsatadi. Ularning bunday imkoniyati ushbu katta loyihani ishga tushirishda qoʻl kelgani quvonarli. Ha, Oʻzbekiston tarixida birinchi marta mahalliy ishchilar shunday katta zavodni muvaffaqiyatli tarzda ishga tushirdi.

Korxonada kadrlar tayyorlash hamda iqtidorli talabalarni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirishga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shu maqsadda stipendiya dasturi joriy qilingan boʻlib, neft va gaz sohasida tahsil olayotgan bilimga chanqoq, istiqbolli, aniq maqsad sari intiluvchan yoshlar qoʻllab-quvvatlanadi.

Oʻtgan yillar davomida mazkur stipendiyalar dasturida turli oliygohlar talaba yoshlari ishtirok etib, “Uzbekistan GTL” kompaniyasi stipendiyasi sohibiga aylanmoqda. Bugun ularning aksariyati shu yerda mehnat qilyapti. Chunki har yili ushbu tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etgan talabalar zavodda ishlab chiqarish amaliyotini oʻtash imkoniga ega boʻladi.

Harakatlar oʻz natijasini berdi. Eksport geografiasini kengaytirish maqsadida “Uzbekistan GTL” zavodi Yevropa Ittifoqining kimyoviy moddalar ishlab chiqarish va aylanmasi boʻyicha rasmiy organi boʻlgan Yevropa kimyo agentligi (European chemicals agency)da GTL dizel yoqilgʻisini REACH sertifikatlashtirish muvaffaqiyatli oʻtkazdi.

Mazkur sertifikat Yevropa bozorlariga Oʻzbekistonda ishlab chiqarilayotgan sintetik mahsulotlar eksporti hajmini bir necha barobar oshirish hamda GSP+ dasturi doirasida eksport geografiasini kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Buguni kunda “Uzbekistan GTL” zavodi Yevropa kimyo agentligining REACH reglament talablarining barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunladi va GTL dizel yoqilgʻisi uchun sifat sertifikati taqdim etildi.

Taʼlim-ishlab chiqarish klasteri samara bermoqda

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-iyuldagi “Neft va gaz sohasida taʼlim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori ijrosini taʼminlash maqsadida zavodda bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, taʼlim-ishlab chiqarish klasteri tashkil etilib, bir qancha oliygohlar bilan hamkorlik yoʻliga qoʻyilgan.

Neft va gaz sohasida taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarishning oʻzaro integratsiyasini taʼminlash maqsadida ijobiy ishlar qilindi. Klaster tizimida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xususan, toʻrt bosqichli dastur yoʻliga qoʻyilgan. Bunda sohaga oid oliygohlar talabalari amaliyotini tashkil etish, professor-oʻqituvchilarning malakasini zavodda oshirib borish, ischi-xodimlarni mintazam oʻqitish hamda mutaxassislar oliy taʼlim muassasalariga borib oʻquv mashgʻulotlari oʻtadi. Buning samarasi, albatta, amalda namoyon boʻlmoqda. Kadrlar salohiyati oshib borishi bilan birga boʻljak xodimlar ham bevosita tayyor mutaxassis boʻlib ishga kelyapti.

Dunyo eʼtirofida

2022-yil 8-dekabr kuni AQSHning Nyu-York shahrida neft-gaz va kimyo sanoati sohasidagi eng nufuzli “Platts Global Energy Awards” mukofoti gʻoliblarini taqdirlash marosimi boʻlib oʻtdi. Unda korxona “S&P Global Platts” agentligining “Uglevorodlarni qayta ishlash sohasi va kimyo sanoati” nominatsiyasida gʻolib deya eʼlon qilindi.

Albatta, bu yuksak natijani qoʻlga kiritishning oʻzi boʻlgani yoʻq. Gʻoliblikka saralashda bu yerda xalqaro standartlarga toʻlaonli mos keluvchi yuqori sifati va ekologik toza yoqilgʻi mahsulotlari ishlab chiqarilishi, mahsulotlardan foydalanilganda atmosfera zaharli chiqindi gazlar shakllanishi mavjud emasligi inobatga olindi. Shuningdek, zavodning ishlab chiqarish jarayonida innovatsion texnologiyalar, ilgʻor transformatsiyalar tatbiq qilinishi va energetika sohasida nobarqaror paytlarda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning operativligi va moslashuvchanligi hisobga olingan.

GTL patentlangan “Sasol” texnologiyasi asosida tabiiy gazdan ishlab chiqarilgan mutlaq sintetik, yuqori sifati oʻrta distillatli yoqilgʻidir. U Yevropaning eng yuqori standartlariga javob bergani uchun Evro-6 avlodiga (K-6) mansub boʻlib, premium klass toifasidagi yoqilgʻilar qatoriga kiradi.

GTLning anʼanaviy yoqilgʻidan ustunlik jihati tarkibida oltinbugurt va aromatik uglevodorodlar deyarli yoʻqligi, setan soni juda yuqoriligi, oʻzi deyarli hisdsiz va rangsiz ekani hamda EN15940 Yevropa standartining barcha talabiga javob berishidir.

Toʻliq quvvatda ishlashni boshladi

Oʻtgan 2024-yil yanvar oyida davlatimiz rahbari raisligida investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazirlar muhokamasi yuzasidan oʻtkazilgan yigʻilishda berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida “Oʻzbekneftgaz” AJ va uning tasarrufidagi “Uzbekistan GTL” zavodida ishlab chiqarilayotgan sintetik mahsulotlarni REACH sertifikatlashtirish oʻtkazish tadbirlari boshlanib, bu jarayon 8 oy davom etdi.

Harakatlar oʻz natijasini berdi. Eksport geografiasini kengaytirish maqsadida “Uzbekistan GTL” zavodi Yevropa Ittifoqining kimyoviy moddalar ishlab chiqarish va aylanmasi boʻyicha rasmiy organi boʻlgan Yevropa kimyo agentligi (European chemicals agency)da GTL dizel yoqilgʻisini REACH sertifikatlashtirish muvaffaqiyatli oʻtkazdi. Mazkur sertifikat Yevropa bozorlariga Oʻzbekistonda ishlab chiqarilayotgan sintetik mahsulotlar eksporti hajmini bir necha barobar oshirish hamda GSP+ dasturi doirasida eksport geografiasini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

Buguni kunda “Uzbekistan GTL” zavodi Yevropa kimyo agentligining REACH reglament talablarining barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunladi va GTL dizel yoqilgʻisi uchun sifat sertifikati taqdim etildi.

Rejaviy kapital taʼmirlash ishlaridan soʻng 2025-yilning iyun oyida “Uzbekistan GTL”ning “Air Products” kompaniyasi bilan hamkorlikda oʻtkazilgan “Performance test”, yaʼni 100 foiz ishlab chiqarish yuklamasi ostidagi sinovi muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu zavodning toʻliq quvvatda barqaror ishlash xususiyatini namoyon etdi. Sinov natijalari zavodning yuqori darajadagi tayyorgarligi va xalqaro standartlarga mosligini koʻrsatdi. — deydi “Uzbekistan GTL” korxonasi bosh direktori Alisher Bahodirov. — Holbuki, dunyo boʻylab GTL texnologiyasi asosida qurilgan 4 ta zavodning hech biri hozirgi kunga qadar 100 foiz quvvatda ishlash koʻrsatkichlarini namoyon etmagan.

Hozir 100 foiz quvvatda “Performance test”ni muvaffaqiyatli amalga oshirgan zavod yillik 700 ming tonna dizel, 450 ming tonna nafta, 300 ming tonna kerosin, 50 ming tonna suyuqlirilgan gaz ishlab chiqara oladi.

Akbar RAHMONOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Shuningdek, issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash choralari, davlat tomonidan uning hisobini yuritish tartib-qoidalari, atmosfera qaziladigan zararli gazlar va uglerod birliklari reyestrini yuritish, gazlar chiqarilishini qisqartirish boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar ishlab chiqish, issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirish loyihalari natijasida hosil boʻladigan uglerod birliklari muomalasi, qisqartirilgan issiqxona gazlariga egalik munosabatlariga ham alohida eʼtibor qaratilgan.

Bundan tashqari, issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash choralarini monitoring qilish, hisoboti va verifikatsiya tizimi asoslari hamda tartibi ham koʻrsatib oʻtiladi.

Muhim qoidalardan yana biri — uglerod birliklari savdosi natijasida hosil boʻladigan mablagʻlar iqlim oʻzgarishi va uning oqibatlarini yumshatish, ekologiya sohasidagi dasturlar, tadbirlarni amalga oshirishga, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, sirkulyar va “yashil iqtisodiyot”, chiqindilarni boshqarish bilan bogʻliq sohalarga belgilangan tartibda yoʻnaltirilishi mustahkamlab qoʻyildi.

Umuman olganda, mazkur qonun respublikamizda issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish va cheklashga, Parij bitimiga asosan issiqxona gazlari chiqarishni qisqartirish boʻyicha oʻz zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilishiga, sohadaqi islohotlar jadallashishiga hamda yurtimiz iqtisodiyoti barqaror rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qiladi.

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TAʼMINLASH

energiyatejamkor loyihalar orqali “uglerod izi”ni kamaytirishni jadallashtiradi



Xayrullo GʻAFFOROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qoʻmita raisi

Davrimizning dolzarb muammosiga aylangan, sayyoramiz taraqqiyotiga jiddiy toʻsiq boʻlayotgan iqlim oʻzgarishlari bugun global tahdid sifatida dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Mutaxassislarining taʼkidlashicha, bu borada oʻz vaqtida choralar koʻrilmasa, oldindan bashorat qilib boʻlmaydigan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq oʻsib borayotgan tahdidlarning oldini olish maqsadida Parij bitimi qabul qilingan. Oʻzbekiston uni 2018-yil 3-oktabrda ratifikatsiya qilgan. Istiqbolida mamlakatimiz iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash chora-tadbirlarini kuchaytirish, yaʼni 2030-yilga kelib, atmosfera issiqxona gazlari chiqarishni 2010-yildagi darajaga

nisbatan 10 foiz qisqartirishni rejalashtirgan edi. 2021-yil noyabr oyida Glazgo shahrida oʻtkazilgan BMT Iqlim oʻzgarishlari boʻyicha hadli konvensiyaning 26-yigʻilishida delegatsiyamiz tomonidan bu koʻrsatkichni 35 foizgacha qisqartirish belgilandi.

Iqlim oʻzgarishlarining asosiy sababchisi hisoblangan issiqxona gazlarini kamaytirish,

atmosfera qazilishini cheklash dunyo ekologlari, toʻgʻrirogʻi, insoniyat oldida turgan global muammo boʻlib qolmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni taʼminlashga



Bugun barqaror iqtisodiyotni ta'minlashning muhim omillari qatoriga "yashil iqtisodiyot" ham qo'shildi. Bu faqat ekologik muammolarni hal etishdangina iborat jarayon emas. Endi unga o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ko'plab davlatlar ekologik zarurat sabab "yashil iqtisodiyot" oqimiga tushib oldi. Ammo unda ilgari lab borish uchun faqat istakning o'zi yetmaydi.

Bir qarashda tabiatning beminnat in'omlari bilan bog'liq ko'ringan "yashil" texnologiyalarni qo'llash biz o'ylaganchalik arzon va sodda emas. Buning uchun dadil institutsional islohotlar, davlat, biznes va jamiyat o'rtasidagi yaqin hamkorlik, eng muhimi, o'qitish, ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyatini qayta ko'rib chiqishimiz zarur.

Bu borada ko'p davlatlar rivojlanishning aylanma modelini tanlamoqda — chiqindilarni ko'mish o'rni qayta ishlash, ortiqcha iste'mol o'rni resurslardan samarali foydalanish, choraklik natijalar emas, balki kelgusi avlodlar manfaati nuqtayi nazaridan fikr yuritish va hokazo. Mamlakatimizda 2019-yilda Prezident qarori bilan qabul qilingan "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi" ayni shu jihatlarini, xususan, aylanma iqtisodiyot tamoyillari va chiqindilarni boshqarish tizimlarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Ammo strategiyani qanday qilib amaliy mexanizmga aylantirish mumkin? Sinovdan o'tgan yechimlarni qayerdan izlash kerak?

Bu borada turli rivojlangan davlatlar tajribasi namuna bo'la oladi. Shulardan biri Finlyandiya amaliyoti bo'lib, mamlakat yigirma yildan buyon texnologiyalar, inson kapitali va xalqaro hamkorlikka tayangan holda "yashil iqtisodiyot"ni izchil va tizimli ravishda rivojlantirmoqda. Buni shiorlar orqali emas, balki aniq va amaliy qadamlar bilan amalga oshiryapti. Xususan, davlat xizmatchilarini raqamli o'qitish, "yashil" ko'nikmalar markazlarini tashkil etish, barqaror dizayn sohasidagi startaplarni qo'llab-quvvatlash, yuqori samaradorlikka ega chiqindilarni yoqish natijasida ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalarini qurish kabi ishlar orqali bajariladi.



Muhimi shundaki, bu yondashuvlarning ko'pchiligini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va joriy etish mumkin. Bunda milliy xususiyatlar, kadrlar salohiyati, biznes ehtiyojlari va shahar boshqaruvi sohasidagi muammolarni inobatga olish, ayniqsa, dolzarb. Buning uchun esa tizimli yondashuv va sinovdan o'tgan yechimlar zarur.

O'quv kurslaridan boshqaruv madaniyati sari

Demak, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bu faqatgina ekologik toza, tabiat uchun zararsiz, energiyatamkor texnologiyalarni qo'llashdangina iborat emas. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish milliy strategiyasida davlat idoralarning salohiyatini oshirish, ESG tamoyillarini joriy etish va qaror qabul qilishda ekologik madaniyatni shakllantirish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayon qonun va me'vorlar bilan, qolaversa, yangi boshqaruv madaniyati va davlat

“YASHIL IQTISODIYOT”NI ICHKI DRAYVERGA AYLANTIRISH VAQTI KELDI



xizmatchilarida zamonaviy kompetensiyalarning formallashtirilishi orqali amalga oshishi mumkin.

Masalan, Finlyandiya bu yo'nalishda ilg'or tajribaga ega. Mamlakatda 2000-yillar boshidan barcha darajadagi davlat xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan Davlat boshqaruvi instituti faoliyat yuritib kelmoqda. Unda nafaqat davlat boshqaruvi sohasi bo'yicha, balki barqaror rivojlanish, ESG tamoyillari va "yashil iqtisodiyot" asoslari yuzasidan ham keng qamrovli o'quv kurslari taklif etiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning o'zida 40 mingdan ziyod fin davlat xizmatchilari ushbu kurslarda bilim va ko'nikmalarini rivojlantirgan.

E'tiborlisi, Institut o'z faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat xizmatchilarini o'qitishni yanada ommaviy va samarali tashkil etishga erishdi. Xususan, "eOppiva" platformasi 130 mingdan ortiq foydalanuvchiga 800 dan ziyod onlayn kurslar orqali masofaviy o'qish imkoniyatini yaratdi. Bu kurslar nazariya bilan cheklanib qolmasdan, amaliy keyslar va boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashgan holda ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham davlat xizmatchilari salohiyatini rivojlantirish masalasi tobora dolzarb bo'lib boryapti. 2025-yilning

qilmaydi. Jumladan, mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar jarayonida Finlyandiya tajribasini o'rganish va o'zimizga moslashtirish imkoniyati mavjud. O'zbekistonda ham "eOppiva" singari milliy onlayn platforma yaratish davlat xizmatchilari uchun doimiy o'quv imkoniyatini ta'minlashi mumkin.

“Yashil” ko'nikmalar — kelajak mutaxassislarining asosiy kapitali

Gap yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash haqida boryapti. Bular chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari muhandislari, yopiq aylanma tizimlar loyihalovchilari, resurslarni tejaydigan qishloq xo'jaligi agronomlari, "yashil" audit ekspertlari va hokazo. Ekologiya va barqaror rivojlanish sohalarida kadrlar salohiyatini oshirish, shuningdek, aholida ekologik va resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Ayniqsa, yurtimiz hududlarida qayta tiklanadigan energetika, chiqindilarni raqamli boshqarish va barqaror shahar infratuzilmasi sohalarida kadrlar yetishmasligi O'zbekiston uchun jiddiy to'siq hisoblanadi.

Finlyandiya bu masalani butun bir ta'lim ekotizimi orqali hal qilayotgani e'tiborga molik. Masalan, Espoo shahridagi OMNIA amaliy ta'lim markazi har yili 30 mingdan ziyod insonni — o'smirlardan tortib, migrantlar va davlat xizmatchilarigacha qayta tayyorlaydi. Bu yerda barqaror qurilish, chiqindilarni raqamli boshqarish, energiya samaradorligi bo'yicha sohaviy kurslar o'qitiladi. O'quv dasturlari biznes va mahalliy hokimiyat ehtiyojlariga to'liq moslashtirilgan. 2023-yilda 4,5 mingdan ortiq katta yoshdagi tinglovchilar ekologik va raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirgan.

Yoki yana bir misol — Xelsinkiidagi Metropoliya amaliy fanlar universitetini olaylik. Ta'lim dargohi qoshidagi Barqaror yechimlar markazi talabalar, muhandislar va tadbirkorlar uchun innovatsiyaviy maydonga aylangan. Bu yerda ular Carbon Garage, Robo Garage va UrbanFarmLab kabi laboratoriyalarda shahar dehqonchiligidan tortib, iqlim texnologiyalariga qadar prototiplar yaratib, sinovdan o'tkazmoqda. Loyihalarning asosiy maqsadli uglerod izini kamaytirish va barqaror shahar muhitini yaratishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham OMNIA va Metropoliya singari markazlar konsepsiyasini joriy qilish yoki mavjud kasb-hunar markazlarini "yashil" ko'nikmalar platformasiga aylantirish orqali o'xshash ekotizimni barpo etish mumkin. Bu nafaqat ish o'rinlari yaratishga, shu bilan birga,

mamlakatda barqaror rivojlanishning kadrlar poydevorini qo'yishga xizmat qiladi.

Innovatsiyalar va startaplar: akseleratorga aylangan universitet

O'zbekiston strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri "yashil" tadqiqotlar va texnologik yechimlarni rag'batlantirishdan iborat. Lekin innovatsiyalar paydo bo'lishi uchun zarur infratuzilma, dasturlar va biznesni qo'llab-quvvatlovchi platforma yaratish lozim.

Finlyandiya aynan shu yo'ldan ketmoqda.



Masalan, Xelsinkiidagi Aalto universiteti mamlakatning xalqaro va innovatsiyaviy oliyog'laridan biri bo'lib, "yashil" tadbirkorlik sohasida ham yetakchi hisoblanadi. Bu yerda tashkil etilgan "Aalto Startup Center" akseleratori har yili 80 tagacha startapni qo'llab-quvvatlaydi, ularning yarmi esa to'g'ridan



to'g'ri "yashil" texnologiyalar bilan bog'liq. So'nggi 20 yilda ushbu markaz 600 dan ziyod kompaniyaning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Ular orqali 3200 dan ortiq ish o'ri yaratilgan va umumiy aylanma hajmi 630 million yevrodan oshgan.

O'zbekiston uchun ham bu yondashuv dolzarb. Mamlakatda texnoparklar, innovatsiya markazlari va oliyog'lar negizida "yashil" startaplar akseleratorlarini yaratish, qayta ishlash, tiklanuvchi energetika va raqamli ekologik yechimlarga ustuvor ahamiyat berish imkoniyati mavjud. Ana shu imkoniyatdan foydalanish keyingi yillarda faollashgan. Bugun yurtimiz bo'ylab qator akselerator markazlari,

g'oyalarni loyihalarga aylantiradigan zonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu nafaqat yosh tadbirkorlarni rag'batlantiradi, balki mamlakatda barqaror rivojlanishning yangi drayverini ham shakllantiradi.

Chiqindilarni resursga aylantirgan shahar

Finlyandiyaning Laxti shahri aylanma iqtisodiyotni amalda qo'llayotgan eng yorqin namuna hisoblanadi. 2021-yilda shahar "Yevropaning "yashil" poytaxti" unvoniga sazovor bo'ldi va bu nomni shunchaki ramz sifatida emas, balki aniq natijalar bilan asosladi. Laxtida chiqindilarga iqtisodiy resurs sifatida qaraladi. Bugungi kunda shaharda chiqindilarning 46 foizi qayta ishlantiriladi, 52 foizi esa energiya ishlab chiqarish uchun yo'naltiriladi. Faqat 1 foizi chiqindixonalarga yuboriladi.

Bu muvaffaqiyatning asosiy siri chiqindilarning haqiqiy hajmi uchun to'lov tizimidadir. Mazkur tizim "tashlaganing uchun to'la" tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni har bir xonadon chiqargan chiqindilarni uchun haq to'laydi. Konteynerlar elektron belgilar bilan jihozlangan va chiqindilarni olib ketish jarayoni raqamli platformada qayd etiladi. Bu avtomatlashtirilgan tizim aholining chiqindilarni saralab tashlashini rag'batlantirib, mahalliy bizneslarga faol ekologik targ'ibotlar o'tkaziladi. Shu bois, barqarorlik shahar madaniyatining bir qismiga aylanib, iqtisodiy va ekologik jihatdan sezilarli natijalar bermoqda.

O'zbekistonda ham shaharlar soni ortib, chiqindilar hajmi oshib borayotgan bir paytda

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borayotganini inobatga olib, ESG tamoyillarini joriy qilish orqali yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Xususan, eksportga yo'naltirilgan korxonalar xalqaro bozor talablariga javob berish uchun barqarorlik bo'yicha sertifikatlash va o'quv dasturlariga ehtiyoj sezmoqda. Shu bois, "Tadbirkorlar akademiyasi" kabi muqobil platforma yaratish, mentorlik dasturlarini rivojlantirish va kichik biznes uchun ESG bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish O'zbekistonda ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

Keyingi yillardagi amaliy harakatlarning asosida ham shu jihatlar yotadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiyot tarmoqlarida "yashil" texnologiyalarni qo'llash ko'rsatkichlari oshib boryapti. Buning uchun talabgorlarga qator imtiyozlar, subsidiyalari berilyapti. Qolaversa, 2025-yilning 1-sentabridan boshlab "yashil tadbirkor" platformasini ishga tushirish va tegishli talablar asosida ishlab chiqarish "yashil" tadbirkor maqomini berish belgilangan. Bu aholi uchun ham, davlat uchun ham ekologik manfaatdorlikning yanada oshishiga xizmat qiladi.

Aylanma iqtisodiyot — O'zbekiston uchun imkoniyatlar kaliti

Aylanma iqtisodiyot faqatgina texnik yechimlar yoki iqtisodiy choralar bilan cheklanib qolmaydi. Dunyo davlatlari tajribasi ham shuni ko'rsatayapti. Bunday iqtisodiyot butun tizimni qamrab olib, davlat institutlari, ta'lim tizimi, jamiyat madaniyati va davlat-biznes hamkorligini o'zgartirishni talab etadi. O'zbekistonda bu yo'nalishda tobora muhim strategik qadamlarni tashlamoqda. Milliy "Yashil iqtisodiyot" strategiyasida ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan, endi ularni hayotga tatbiq etish uchun amaliy mexanizmlar va tizimli choralar kerak.

Ayniqsa, davlat xizmatchilari uchun Finlyandiyaning "eOppiva" platformasiga o'xshash milliy onlayn ta'lim platformasini yaratish barqaror boshqaruv, iqlim xavflari va "yashil" xaridlar sohasidagi bilimlarni uzluksiz ravishda yangilab borish imkonini beradi. Shuningdek, kollejar va universitetlarda aylanma iqtisodiyot va barqaror rivojlanish kurslarini joriy etish, ular negizida "yashil" ko'nikmalar markazlari va loyiha laboratoriyalarini tashkil etish orqali yosh mutaxassislarni zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash mumkin.

Texnoparklar negizida "yashil" startaplar akseleratorlarini rivojlantirish orqali qayta ishlash, tiklanuvchi energetika va raqamli ekologik yechimlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu jarayonda davlat-xususiy sheriklik va grant dasturlari katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, shaharlar kesimida chiqindilarni raqamli nazorat qilish tizimlarini joriy etish, elektron konteynerlar va "aqlli" chiqindi qutilarini o'rnatish orqali atrof-muhit tozaligini ta'minlash samarali harakatlardan biri. Kichik va o'rta biznes uchun ESG "yo'l xaritalari" tizimini ishlab chiqish esa eksportbop korxonalarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida O'zbekiston va Finlyandiyaning qo'shma dasturlari ham yuqori salohiyatga ega bo'lib, ular tajriba almashish, malaka oshirish va ilmiy tadqiqotlar orqali mahalliy yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Bu chora-tadbirlar katta moliyaviy sarf-xarajat talab qilmaydi, ammo O'zbekistonda yangi boshqaruv madaniyati va barqaror rivojlanishning amaliy ekotizimini yaratishga xizmat qiladi. Shu jihatdan "yashil iqtisodiyot"ni mamlakatni modernizatsiya qilish va barqaror o'sishning ichki drayveriga aylantirishning vaqti keldi.

Mirkomil ODILOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy
maktabi direktori o'rinbosari,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Dilfuza QURBONOVA,
Biznes va tadbirkorlik oliy
maktabi xodimi,
iqtisodiyot fanlari nomzodi,
dotsent

— Esmimda, bolaligimda qo'shni hovlida yashovchi tarix fani o'qituvchisi menga har gal ko'zi tushganida “Yo'l bo'lsin, Shermuhammad qo'rboshi?” deya xitob qilardi. Avvallari buning ma'nosini tushunmasam-da, juda qiziqardim. Ulg'ayganim sari ismim atrofdagilarnikiga o'xshamasligini, kamyob ekanini bilib bordim. Bu ismni menga otam qo'yan.

Otaning aytishicha, tarixda shu ism-sharifli botir inson o'tgan. Bugungi kunda uyimizning to'rida taniqli yozuvchi Jonrid Abdullaxonovning “Tarki dunyo” roman-xronikasi hamda adib Mansurxo'ja Xo'jayevning “Shermuhammadbek qo'rboshi” tarixiy kitobi saqlanadi. Ushbu asarlarda vatanparvar ajdodimiz Shermuhammadbekning hayoti va kurashi yo'li haqida yozilgan. Shermuhammadbek qo'rboshi 1918-1922-yillarda Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakatining yetakchi rahbarlaridan biri, istiqlochlilarning tan olingan harbiy qo'mondoni bo'lgan va butun umrini yurt ozodligi uchun kurashga bag'ishlagan. Bu ism menga va kelgusida farzandlarimga ham sha'n bo'lib xizmat qiladi, — deydi jarqo'rg'onlik Shermuhammad Jandreyev.

Prezidentimizning “Mard o'g'lon” davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot, san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalari va huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan bir guruh yoshlar mukofotlandi.

Ular orasida bugungi hikoyamiz qahramonlari — Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasining tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta mutaxassisi Shermuhammad Jandreyev va O'zbekiston Milliy universitetining 2-bosqich talabasi Parvez Qudratillayev ham borligi voha ahliga cheksiz g'urur bag'ishlaydi.

Shermuhammad Jandreyevni mamlakatimizda umidli yosh polvon sifatida allaqachon yaxshi tanishadi.

— Bolaligimdan kurashga alohida mehr qo'rganman. Esmimni taniganimdan buyon to'y va tadbirlardagi kurash musobaqalaridan qolmaganman. Hatto qo'shni qishloqlardagi bellashuvlarga qochib ketgan paytlarim bo'lgan. Yillar o'tdi. Dzyudo bo'yicha O'zbekiston chempionatlarida muntazam g'oliblikni qo'lga kiritib, sakkiz karra mamlakat chempioni bo'ldim, — deydi “Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohibi Shermuhammad Jandreyev. — 2017-yilda Qirg'izistonning Bishkek shahrida kurash bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida kumush medalni, 2018-yilda Indoneziyaning Jakarta shahri mezbonlik qilgan Osiyo o'yinlarida 1-o'rinni qo'lga kiritganman. 2018-2019-yillarda Urganch va Buxoro shaharlarida o'tkazilgan xalqaro turnirlarda ham



barcha raqiblarimni mag'lub etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildim.

Shermuhammad 2019-yili Janubiy Koreyaning Chonju shahrida kurash bo'yicha jahon chempionatida oltin medal sohibiga aylandi. 2021-yili Qirg'izistonning Bishkek shahrida kurash bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida bronza medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, o'sha yili Vengriya poytaxti Budapeshtida dzyudo bo'yicha jahon chempionatida ham uchinchi o'rinni egalladi. O'tgan 2024-yilda esa Eronning Tehton shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida yaqqol ustunlik bilan oltin medalni o'zini qildi.

Shermuhammad Jarqo'rg'on tumanining Yashnobod mahallasida tavallud topgan. Dzyudo va kurash bilan tinimsiz shug'ullanib, ustozlari saboqlaridan ulg'aygan qahramonimiz endi davlatimizning yuksak e'tirofidan so'ng yangi ufqlar sari yanada dadil odimlamosha. Uning sportdagi yutuqlari nafaqat yaqinlari



va mahalladoshlari, balki keng jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'layotir. Ayniqsa, bu e'tirof Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasida faoliyat yuritayotgan hamkasblari qalbida katta quvonch va iftixor tuyg'usini uyg'otdi. Ular bu muvaffaqiyatni yurtdagi har bir yosh uchun rag'bat sifatida qabul qildi.

U bugungi kunda Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasining tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta mutaxassisi sifatida fidoyilik va vatanparvarlik namunasini ko'rsatib, samarali xizmat qilib kelmoqda.

Xizmat faoliyati davomida u o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, g'iyohvandlik, ekstremizm va terrorizmga oid og'ir hamda o'ta og'ir jinoyatlarni fosh etish, jinoiy guruhlarni qo'lga olish bilan bog'liq 22 ta maxsus operatsiyada faol qatnashib, kasbiy mahoratini mardona namoyon etgan.

Har bir yutuq, har qanday zafar, avvalo, tinimsiz mehnat, sabr va iroda mevasidir. Buni navbatdagi qahramonimiz Parviz Qudratillayev misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. U dunyoga toza va halol qalbi, kelajakka yo'l ko'rsatuvchi ichki nuri bilan boqadi. Uning har bir harakati, har bir qadami ortida olijanob orzu, yuksak mas'uliyat va insonparvarlik tuyg'ulari mujassam. Tirishqoqligi, matonati va ruhiy quvvati bilan atrofdagilarga ilhom bag'ishlaydi.

Parviz Qudratillayev Surxondaryo viloyatining so'lim va tog'li Boysun tumanidagi Temir darvoza mahallasida tug'ilgan. Tabiat qo'ynida kamol topgan bu yigit o'z azmu shijoati, sabr-toqati va ilmga tashnligi bilan ko'pchilikning e'tiborini qozongan. U hayotga cheksiz ishonchi, ishtiyoqi va ezuq maqsadlari bilan boshqalarga ibrat bo'lmoqda.

Uning ko'rish qobiliyatida nuqson bor.

balki eng faol kitobxonalardan biri sifatida ham tanilgan. U 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Matonat” kitobxonlik bellashuvining viloyat bosqichida “Yosh kitobxon” yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgani ham fikrimiz dalilidir.

Parviz Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetida tahsil olmoqda.

— Erishgan yutuqlarim zamirida yurtimizda biz kabi yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor va g'amxo'rlik yotadi, — deydi Parviz Qudratillayev. — Bu bizga ulkan ruh va shijoat bag'ishlaydi, katta maqsadlar sari ildamlashimizga turki beradi. Men kabi yoshlarning qo'llab-quvvatlanishi nafaqat shaxsiy rivojlanishimizga, balki vatanimizga muhabbatimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizning dunyo sahnasidagi nufuzini oshirish va o'zligimizni namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Parviz Qudratillayev ustozlari ko'magida



Shunga qaramay, Samarqand shahrida joylashgan ko'zi ojiz o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan “Nurli maskan” maktabini muvaffaqiyatli tamomladi. Maktabda o'qish davridayoq Parviz o'z iqtidori va intilishi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. U ko'zi ojiz o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan fan olimpiadalarida faol ishtirok etib, muntazam ravishda yuqori natijalarga erishib kelgan.

Kitob ma'naviyat chirog'i, yuksalish kaliti ekanini Parviz Qudratillayev bolaligidanoq teran anglagan. Uning hayotida kitob alohida o'rinda tutadi. Yillar davomida kitob unga nafaqat bilim, balki ruhiy quvvat, sabr-toqat va ulkan maqsadlarga intilish yo'lida ilhom manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Parviz kitob o'qishni aslo kanda qilmaydi, mutolaa kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu bois, u tengdoshlari orasida nafaqat bilimdon,



“AYOLLAR DAFTARI” — MEHR DAFTARI

Bugunning gapi

Mamlakatimizda turmush sharoiti og'ir, ishsiz hamda ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan manzilli ko'maklashish tizimi — “Ayollar daftari”ning joriy etilgani ularning muammolarini hal qilishda muhim omil bo'lmoqda.

Xususan, 2025-yil boshida Farg'ona viloyatida “Ayollar daftari”ning oltinchi bosqichida uyma-uy o'tkazilgan xatlov jarayonlarida 111 ming 778 xotin-qiz ushbu daftar ro'yxatiga olindi. Xatlovda ijtimoiy himoyaga muhtoj hech bir ayol chetda qolib ketmasligiga alohida e'tibor qaratildi.

Oldingi bosqichlarda bu daftarga kirgan opa-singillarimizning hayotida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Ularning biri tadbirkor, biri ish beruvchi, yana biri hunarli bo'ldi. Aslida, ayolni e'zozlash, ularni rozi qilishga erishish o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas. Bularning barchasi yurtimizda inson manfaatlari ko'zlangan islohotlar samarasidir.

Bu jabhada O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Farg'ona viloyati

kengashi ham faol ishtirok etib, “Ayollar daftari”ga olingan opa-singillarimizning hayotda munosib o'rin topishiga ko'maklashib kelmoqda.

Dang'ara tumani “Navbahor” mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Alomatxon Erkinova o'rganishlar davomida “Ayollar daftari”ga olingan edi. Garchi uning qo'lida hunari bo'lsa-da, faoliyatini kengaytirishga imkoniyati yetmayotgandi. Unga tadbirkorligini boshlash uchun bankdan 30 million so'm kredit ajratildi. Bu mablag' evaziga Alomatxon 5 ta tikuv mashinasi xarid qildi. Yoniga tikuvchilikdan xabari bor qo'ni-qo'shnilarini jamladi. Buyurtmalar asosida bolalar va ayollar kiyim-kechagini tikishni boshladi. Ayni paytda u bilan 7 xotin-qiz mehnat qilmoqda.



Bag'dod tumani Cho'li Yunus mahallasida yashovchi Mo'tabar Isaqova ham “Ayollar daftari”ga kirgach, ko'rsatilgan yordam sabab hayoti yaxshi tomonga o'zgardi. Bankdan ajratilgan 27 million so'm kredit ishini boshlashiga asqatdi. Ushbu mablag'ga tikuv mashinalari olib keldi. Atrofiga shogirdlar yig'di. Ularga hunar o'rgatdi. Bugun u bilan 5 nafar xotin-qiz yelkama-yelka ishlab aslo kam bo'layotgani yo'q.

Oltiriq tumani G'ayrat mahallasida yashovchi Dilraboxxon Barotova hayotbaxsh islohotlar tufayli bugun ish beruvchi tadbirkor ayolga aylandi. Ayni damda uning tikuv sexida 15 ayolning bandligi ta'minlangan. Xonadonmaxonadon o'rganishlar chog'ida Dilraboxxon Barotova “Ayollar daftari”ga olingan edi. Qo'lidan binoyidek tikish-bichish keladigan Dilraboxxon bank tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga tadbirkorligini yo'lga qo'ydi.

— Ayni paytda mavsumiy kiyim-bosh tikib, bozorlarga chiqaryapmiz, — deydi Dilraboxxon opa. — Hozir qo'shni Qozog'istondan buyurtmalar olib, mahsulotlarimizni tashqi bozorlarga ham yetkazib beryapmiz.

Farg'ona viloyati axborot-kutubxona markazida Oila va xotin-qizlar qo'mita raisining birinchi o'rinbosari Umida Abdullayeva, “Ayollar daftari” bo'yicha O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasidan biriktirilgan

mas'ul rahbar Abdug'affor Solihov boshchiligidagi “Ayollar daftari”ning oltinchi bosqichida xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan amaliy yordamlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan tanqidiy-tahliliy yig'ilishda shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar muhokama qilindi.

Unda viloyat hokimligi, Xalq deputatlari viloyat kengashi, boshqarma va tashkilotlar mas'ul rahbarlari hamda tuman, shahar hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etdi.

Qayd etilganidek, joriy yil boshida 111 ming 778 xotin-qiz “Ayollar daftari”ning oltinchi bosqichida ro'yxatga olingan bo'lib, bugunga qadar ularning 97 ming 667 nafariga amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Ammo ayrim tuman va shaharlarda ro'yxatdagi xotin-qizlarga amaliy yordam berish ishlari bir oz oqsayotgani ta'kidlandi. “Ayollar daftari”ga kiritilgan opa-singillarimizning hayotdan umidi katta ekanini, amaliy yordamlar orqali ro'zg'orlarini butlashga harakat qilishga ishtiyoqi balandligi aytib o'tildi.

Mazkur daftarga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatiladigan manzilli yordamlar sifatini va qamrovini oshirish bo'yicha mas'ul rahbarlarga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Shohsulton TO'XTAMATOV,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
federatsiyasi Farg'ona viloyati
kengashi raisining maslahatchisi

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
34972 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy